



ISSN: 2181-0796
DOI: 10.26739/2181-0796
www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi

**VOLUME 6
ISSUE 3**

2025



TIL, TA'LIM, TARJIMA
6-SON, 3-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
НОМЕР-6, ВЫПУСК-3

**LANGUAGE, EDUCATION,
TRANSLATION**
VOLUME-6, ISSUE-3



TOSHKENT-2025

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

**Bosh muharrir:
Mirzayev Ibodulla**

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Bakirov Poyon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem
f.f.d., dotsent (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar
f.f.d., professor (Qirg'iziston)
Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardayev Azamat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno
ko'lib, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Qulmamatov Do'smamat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Safarov Shahriyor
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shahobiddinova Shohida
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sobirov Anvar
PhD (O'zbekiston)
Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Uluqov Nosirjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurqulov Bekpo'lat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xasanov Axmad
mas'ul ko'lib, PhD (O'zbekiston)
Xayrullayev Xurshidjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xolova Maftuna
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
p.f.d., professor (O'zbekiston)

**Bosh muharrir o'rinbosari:
Ismoilov Salohiddin**

f.f.n., professor (O'zbekiston)

Ilmiy maslahat kengashi:

Abdiyev Murodqosim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Karimov Suyun
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mamatov Abdug'ofur
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mo'minov Siddiq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suvonova Nigorabonu
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Yoqubov Jamoliddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

**Главный редактор:
Мирзаев Ибодулла**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Абдуллаева Албина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиров Поён
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Элгазаров Жулибай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира
PhD, доцент (Узбекистан)
Киселёв Дмитрий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Лабиб Саид Мохаммад Алем
д.ф.н., доцент (Афганистан)
Маматов Абди
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Рахматулла
юрист, доцент (Узбекистан)
Мирзахидова Муяссар
д.ф.н., профессор (Киргизия)
Надим Мохаммад Хумоюн
PhD (Афганистан)
Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Кадирова Барно
секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)
Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Собиров Анвар
PhD (Узбекистан)
Тагаева Сайёра
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаева Мафтуна
PhD, доцент (Узбекистан)
Улукнов Насиржан
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умуркулов Бекпулат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Ахмад
тв. секретарь, PhD (Узбекистан)
Хайруллаев Хуршиджон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Холова Мафтуна
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Иулдашев Казакбай
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:
Исмаилов Салахиддин**

к.ф.н., профессор (Узбекистан)

Научный совет:

Абдиев Мурадқасим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакоева Мухаббат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Хужамурод
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Каримов Суён
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Маматов Абдугафур
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Муминов Сиддик
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Тухтасинов Илхам
д.п.н., профессор (Узбекистан)
Якубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Chief Editor:
Mirzaev Ibodulla

Doc. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Editorial Collegue:

Abdullaeva Albina
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (O'zbekiston)

Bakieva Gulandom
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakirov Poyon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Eltazarov Juliboy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Kiselyov Dmitriy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Labib Said Mohammad Alem
doc. of phil. scien. (Afg'oniston)

Mamatov Abdi
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)

Mirzokhidova Muyassar
doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)

Pardaev Azamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Kadirova Barno
secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Kulmamatov Dushmanat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Rasulov Ravshankhujja
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Safarov Shakhriyor
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Shakhobiddinova Shokhida
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)

Tagaeva Sayyora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ulukov Nosirjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurkulov Bekpulat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)

Hayrullaev Hurshidjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Xolova Maftuna
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)

Yuldashev Kazakbay
doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Ismailov Salohiddin

Cand. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Scientific Advisory Council:

Abdiev Murodkosim
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakaeva Mukhabbat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Berdaliev Abduvali
doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)

Jabborov Khojamurod
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)

Karimov Suyun
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mamatov Abdugafur
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Muminov Siddik
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Suvonova Nigorabonu
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)

Tukhtasinov Ilhom
doc. of ped. scien. (Uzbekistan)

Yakubov Jamoliddin
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TILSHUNOSLIK

Maxammadiyev Xurshid,
Dotsent, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Jizzax, O'zbekiston
xurshidmaxammadiyev@gmail.com

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA UYGA TO'SHALADIGAN BUYUMLARNI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIK- STRUKTUR TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17474367>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan, uyga to'shaladigan buyumlarni ifodalovchi leksemalarning semantik-struktur tahlili o'rganiladi. Alisher Navoiyning lug'at boyligi va badiiy tilida mavjud bo'lgan tasavvurlarni tahlil qilib, uy-mavzulari bilan bog'liq so'zlar va iboralarni yoritadi. Alisher Navoiy asarlarida uyga to'shish uchun buyumlar orqali kishi ruhiyatining o'zgarishi, ma'naviy holatlari va ijtimoiy ahvoli aks etgan. Maqolada, shuningdek, bu buyumlarning ma'naviy, maishiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, ularga berilgan semantik yuklar tahlil qilinadi. Leksemalarning semantik-strukturasi chuqur o'rganish, ularning badiiy tilda qanday ishlatilishini va dastlabki asarlardagi xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, maqola Alisher Navoiyning g'oyaviy-estetik qarashlarini yaxshiroq tushunish, adabiy merosini chuqurroq o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Leksema, uyga to'shaladigan buyum, to'shak, etimologiya, mato, kiyiz, gilam.

Maxammadiyev Khurshid

Associate Professor, PhD in Philological Sciences
Jizzakh State Pedagogical University,
Jizzakh, Uzbekistan
xurshidmaxammadiyev@gmail.com

SEMANTIC-STRUCTURAL ANALYSIS OF LEXEMES REPRESENTING HOUSEHOLD FURNISHINGS IN ALISHER NAVOI'S WORKS

ABSTRACT

This article explores the semantic-structural analysis of lexemes representing household furnishings in Alisher Navoi's works. It examines the words and expressions related to domestic themes, highlighting Navoi's vocabulary richness and artistic language. Through items used for home furnishing, Navoi reflects changes in a person's psyche, spiritual states, and social status. The article also analyzes the cultural, spiritual, and social significance of these items and the semantic layers attributed to them. A deep study of the semantic structure of these lexemes allows for understanding their artistic use and the characteristics in early literary works. Additionally, the article serves as a valuable resource for a deeper comprehension of Navoi's ideological-aesthetic views and his literary heritage.

Key words: Lexeme, household furnishings, bedding, etymology, fabric, felt, carpet.

Махамдиев Хуршид,

Доцента, доктор философии по филологии (PhD)
Джизакский государственный педагогический университет,
Джизак, Узбекистан
xurshidmaxammadiyev@gmail.com

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПРЕДМЕТОВ ЗАСТИЛАНИЯ НА ДОМУ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучается семантико-структурный анализ лексем, выражающих предметов застилания на дому в произведениях Алишера Навои. Анализируя словарный запас и образы Алишера Навои на его художественном языке, выделяются слова и словосочетания, относящиеся к его домашней тематике. В произведениях Алишера Навои через предметы застилания дома отражаются изменения в психике человека, духовном состоянии и социальном состоянии. Также в статье анализируется духовная, бытовая и культурная значимость этих предметов, а также возлагаемая на них смысловая нагрузка. Глубокое изучение семантической структуры лексем позволяет определить способы их употребления в художественном языке и особенности ранних

произведений. Также статья служит важным источником для лучшего понимания идейно-эстетических взглядов Алишера Навои, более глубокого изучения его литературного наследия.

Ключевые слова: лексема, предмет застилания дома, стелить, этимология, ткань, войлок, ковёр.

O'zbek xalqi turmushida orom olish uchun yoziladigan, bosh qo'yiladigan va suyaniladigan ko'rpa-to'shak va yostiqlardan foydalanilgan. Ularni ifodalovchi leksemalar xilma-xil. Turkiy tillarning ko'pida bo'lgani kabi o'zbek tilida *to'shak* so'zi qadimdan mavjud. Alisher Navoiy asarlarida ham bu so'zga duch kelamiz:

*Kat yuzida to'shak solib necha qot,
Anda yotquzdi zoru xastani bot.* (SS, X, 288)

Atama lug'atda shunday izohlangan: **to'shak** – to'shak, polos; oyoq ostiga to'shaladigan har bir narsa. (ANATIL, III, 272) Ko'rinadiki, to'shak so'zining ma'nosi umumiy tarzda izohlangan. Yuqorida keltirilgan baytda esa **kat** (yog'och karavot) ustiga, xasta kishining ostiga bir necha qavat solingan to'shak ko'rpacha ekanligi anglashiladi.

O'TILda quyidagi semalari keltirilgan: **TO'SHAK** 1. Jun, paxta singari yumshoq narsa solib tikib tayyorlangan, yotish, o'tirish uchun to'shaladigan buyum, anjom. 2. Yotish uchun solingan o'rin; ost va ustga tashlanadigan (solinadigan) narsa. (O'TIL, IV, 250). Alisher Navoiy asarlarida shu ma'nolarda qo'llangan bu so'z ba'zan *yosti*q ma'nosida ham kelgan:

*Netib qilg'ay safodin sajdae fosh,
To'shakdin ulki olmas lahzae bosh.* (FSh, VIII, 513)

Bu atama DLTda *töshäk* shaklida uchraydi. (DLT, I, 374) Hozirgi o'zbek tilida *to'shak*, turkman tilida *dushek*, qirg'iz tilida *doshäk*, uyg'ur tilida *chushek* tarzida qo'llanadi.

Nadejda Yerlenbaevaning ishida oltoy tili maishiy leksikasi tarkibida *jastyk / töjök* – “postel” (bukv: “podushka-postel”), *töjök-oryn* “postelnye prinadlejnosti” (bukv: “postel-krovat”) kabi juft so'zlar borligi qayd etilgan [1,18].

Alisher Navoiy asarlarida leksemaning fors-tojikcha, arabcha sinonimlari ham qo'llangan:

*Qasrkim erdi mehmonxona,
Farsh ila raxti borcha shohona.* (SS, X, 266)

Arabcha farsh “to'shak, gilam, palos, yerga to'shalgan narsa” (ANATIL, III, 331), forscha o'zlashma **raxt** so'zi esa “uy asbob-anjomi, kiyim-kechak” ma'nolarini bildiradi. (NAL, 523)

Alisher Navoiy asarlari tilida *ko'rpa* yoki *ko'rpacha* so'zlari uchramaydi. Ma'lumki, ko'rpa kishi ustiga yopilsa, ko'rpacha ostga solinadi. Shoir bular o'rniga forsiycha **bistar** so'zidan foydalanadi:

*Kelturdiyu bistarig'a soldi,
Yotquzdiyu yondi po'ya oldi.* (LM, IX, 107)

Bu istiloh fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "o'rin-bosh, ko'rpa-yostiqlik" ma'nolarini anglatadi. (NAL, 121)

O'TILda *ko'rpa-to'shak* juft so'zi alohida qayd etilmagan. "Farhod va Shirin" dostonida *ko'rpa-to'shak*, o'rin-joy o'rnida eski o'zbek tiliga o'zlashgan *firoshu bistar* juftligi qo'llangan:

Ayoq qo'yg'ay firoshu bistaring'a,
Ilik sung'ay sirohu kishvaring'a. (FSh, VIII, 64)

Mana bu baytda esa vazifasi jihatdan ko'pincha birga tilga olinadigan ko'rpa-yostiqlik ma'nodoshlari *bistar* va *takya* leksemalari ishlatilgan:

Jismingga zarurat o'lsa bistar,
Boshing dog'i bo'lsa takya istar. (LM, IX, 280)

Bistar hozirda Buxoro shevasida "kelin-kuyov uchun maxsus tikilgan shoyi ko'rpa" ma'nosida qo'llandi [2,52]. Bu so'z tatar tilining ayrim shevalarida *sochiq* ma'nosida ishlatiladi. T.X.Xayrutdinovanning monografiyasida *bistar* haqida shunday fikr bildirilgan: "Sochiq tushunchasini ifodalash uchun kryashin shevasida *bistār* so'zi qo'llanadi. (Ostroumov, 1892) Nagaybak, shuningdek, menzelin shevalarida bu so'z "uch tomoniga naqsh tikilgan uzun sochiq"ni bildiradi, Laishev shevasida (Qozonbo'yi) *bēstār* fonetik varianti qo'llanadi. *Bistār / bēstār* fors tilidan o'zlashgan" [2,52].

"Xamsa" dostonlari tilida **bolisht** – *yostiqlik*, *bolish* va **gird bolisht** – *lo'la bolish*, *yumaloqlik yostiqlik* ma'nolarida qo'llangani lug'atlarda qayd etilgan (NAL, 126):

Kelu hujram supurgil, ey iqbol,
Gird bolisht ravzan olig'a sol. (SS, X, 59)

Yoki:

Sipehr uzra bo'lsun sanga taxtgoh,
Quyosh girdbolishtidin takyagoh. (SI, XI, 341)

Dostonlarda *yostiqlik* ma'nodosh *takya* so'zi ham qo'llangan:

Devonag'a yoru oshno ul,
Takya qilur o'lsa muttako ul.

Ta'kyai xoro – "tosh yostiqlik", "qattiq yostiqlik":

Uyqug'a qo'ymoqlik tilasam yerga bosh,
Takyai xoro manga bir xora tosh. (HA, VII, 366)

Eski o'zbek tiliga oid lug'atlarda *takya* yostiqlikdan tashqari "suyanchiq"; "darvishlarning maxsus turar joyi"; "umumiy yotoqxona" ma'nolari ham ko'rsatilgan.

Takya so'zi arabcha bo'lib, "miskinlar uyi", "g'aribxonona" ma'nosidadir. Shuningdek, bu so'z "suyanmoqlik, tayanmoqlik"; "odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy"; "ko'knorixonona" ma'nolarida ishlatiladi.

Qashqadaryo o'zbek shevalarida lo'la so'zi qo'shib *lo'latakya*, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida *lo'latakya* "uzun, yumaloqlik yostiqlik" ma'nosida qo'llanadi. Xorazm shevalarida *taka* yostiqlik barcha turlarini ifodalash uchun qo'llaniladi [4, 142-143].

Chodarshab/chodirshab ham ko'rpa-to'shaklar sirasiga mansub. Bu forsiy o'zlashma lug'atlarda *choyshab* tarzida izohlangan. "Hayrat ul-abror" dostonida "to'shab qo'yish; yopinish uchun ishlatiladigan mato" ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Charx qilur zohir etib kavkabin,

Durg'a mukallal qora chodarshabin. (HA, VII, 360)

Alisher Navoiy asarlari tilida yana turli-tuman: *bo'ryo/bo'riyo, kiz/kiyz/kiyiz, gilem, ko'raka/ko'rga/ko'raga, zaylucha, polos, shol* singari to'shak nomlari uchraydi.

Bo'riyo hozirgi o'zbek tilida *bo'yra* shakliga o'zgargan. Bu istiloh asli forsiy tilga mansub bo'lib, tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama hisoblanadi. Gilamga yoki boshqa tuzukroq bunday to'shamalarga qurbi yetmagan qashshoq kishilar undan ko'proq foydalanishgan. Shuningdek, bo'yralar nam va zaxdan, chang-tuproqdan saqlanish uchun gilam ostiga ham solingan. Alisher Navoiy ijodida bu so'z qo'llangan shunday bayt mavjud:

Xonaqoh ichraki solib bo'riyo,

Rang anga zaraq o'lubon, bo'riyo. (HA, VII, 141)

Mana bu misolda ham bo'ryo eski bir to'shak sifatida qayd etilgan:

Bir ko'han bo'ryo firosch erdi,

Muttako go'sha uzra tosh erdi. (SS, X, 141)

Shu baytdagi arabiy o'zlashmalardan *firosch* – *to'shak, o'rin-ko'rpa* ekanini, *muttakoning* esa *suyanchiq* ma'nosidan tashqari *yosti*q ma'nosi ham borligini qayd etishimiz lozim. Ya'ni, "Bir eski bo'yra to'shak edi, bir chekkadagi tosh suyanchiq edi".

Kiz / kiyz / kiyiz – namat. "Farhod va Shirin" dostonida Farhod umrining so'nggi pallalari tasvirida **kiz** so'zi ishtirok etgan shunday bayt keladi:

Qaro kizlar bo'yunlarig'a solib,

Ki, yuzdin kizu kizdin yuz bo'yolib. (FSh, VIII, 456)

Farhod aytadiki, agar Mulkoro va Bahrom ahvolimni o'limga qadar yetganini, halok bo'lganimni bilishsa, menga motam tutib, bo'yinlariga qora kiyiz osardilar, bu kigizdan yuzlariga qoraga bo'yalardi. Navoiy asarlarida motam holatlarini, manzarasini chizganda, insonlar yaqin kishisini yo'qotganda, qora kiyishlari, egniga eski, juldur kiyim, bo'ynilariga qora kigiz ilishib, yuzlariga qora surtib, sochlari, yuzlarini yulib yig'lashlarini tasvirlaydi yoki shunga ishora qiladi. Bunga ushbu bayt ham misol bo'la oladi:

Bulbul topmay o'zin azosiz,

Bo'lg'ay pari bo'ynig'a qaro kiyz. (LM, IX, 292)

"Navoiy asarlari lug'ati"da *taxta kiyiz* – kigiz parchasi deb izohlanganki (NAL, 602), bu to'g'ri emas. Fikrimizni shoir asarlaridagi quyidagi misollar ham tasdiqlaydi:

Shahikim, ko'kka chiqqay taxtu johi,

Gadokim, taxta kiz bo'lg'ay panohi. (FSh, VIII, 425-425)

Qadimgi tabobatda yaraga kiyiz kuydirib bosish qo'llanilgan. Mana bu baytdagi fikr shu haqida:

*Kiyz porasin ohi kuydurub chust,
Boshi yarasig'a bog'ladi rust. (LM, IX,191)*

Qayd etish kerakki, ko'pgina matolar, ashyolar to'shak uchun ham, kiyim-kechak uchun ham, uy-o'tovlarni qoplash uchun ham ishlatilgan. Masalan *kigiz, shirdog', palos, shol*, shunday materiallar hisoblangan. Masalan:

*Sekin qilib uy kiyzini pora,
Ul furjadin ayladi nazora. (LM, IX, 246)
Kiyimak uchun egniga topmay palos,
Elga tilar, bersa munaqqash libos. (HA, VII 179)
Zohir etib yig'lag'udek hol anga,
Kiydurubon eski qaro shol anga. (HA, VII, 65)*

“Majolis un-nafois” tazkirasida **kiyiz** so'zi **kiyiz bo'rk** (kigizdan qilingan telpak) birikmasida uchraydi: “Mavlono Ashraf darveshvasht va nomurodsheva kishi erdi. Va **kiyiz bo'rk** ustiga **qurchuq** chirmar erdi. (MN, XIII, 11)

Tilshunos olim A.Primov o'z maqolasida Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridagi maishiy leksikaga oid so'zlar haqida so'z yuritar ekan, *kigiz, gilam, to'shak, takya, yosti* singari uy-ro'zg'or buyumlarining ma'nosi, etimologiyasi, til mansubligini yaxshi ko'rsatib bergan.

Gilam leksemasi “jun, ipak kabi ashyolardan to'qilib, uyga to'shaladigan yoki devorga osib qo'yiladigan buyum” nomini ifodalaydi. Asli, fors-tojik tilida “palos”, “taqir gilam” ma'nosini ifodalovchi *kelim* so'zi tilimizga *gilam* bo'lib o'zlashgan. Tojik tilida *gilem* shaklida qo'llanadi. Arab tilida ham *gelim//kelim* ishlatiladi. (O'TEL, III, 62) Alisher Navoiy asarlarida bu so'z *gilem* shakliga ega:

*Gileme solinib gulgunu zebo,
Yasolib ko'rgasi gulrangu debo. (FSh, VIII, 97)*

Ikkinchi misradagi **ko'rga** yana bir turkiycha to'shak nomi bo'lib, *kiygiz, namat; palos, shol, kigiz* ma'nosini anglatgan. Bizningcha, lug'atlarda bu so'z 1. May to'ldirilgan idish bilan qadahlar qo'yilgan sandalcha; 2. May idishi (NAL, 327); may idishlari qo'yiladigan maxsus sandalcha; may idishi; katta kub (ANATIL, II, 155) tarzida yanglish izohlangan. Sababi, NALda bu so'z izohiga illustratsiya keltirilmagan bo'lsa, ANATILda yuqoridagi bayt misol keltirilgan. “Yasolib **ko'rgasi gulrangu debo**” misrasidagi *debo* so'zining “*nozik, nafis ipak mato; harir*” (ANATIL, II, 477) ekanligi **ko'rga** so'zining sandalcha yoki may idishi emas, balki to'shak ekanligini isbotlaydi.

“Saddi Iskandariy”da **ko'rga** so'zining *ko'raga/ko'raka* shakllari ham mavjud:

*Oq uyga eshik rust, tungluk dag'i,
Bo'lub ko'raga ev davrig'a to'k dag'i. (SI, XI, 250)*

Yuqoridagi lug'at kitoblarda *ko'raga* – “kiygiz, namat; *ko'raka* – polos, shol, namat” ma'nosida to'g'ri izohlangan. (NAL, 327; ANATIL, 155)

Zaylucha – gilamcha, sholcha. (NAL, 241) Bu forsiy o'zlashma “Farhod va Shirin” dostonida ishlatilgan:

Ipak zaylucha ham soldirdi filhol,

Dedi: O'ltursun ul sho'rida ahvol. (FSh, VIII, 287)

“Boburnoma” matnida ham bu soʻzni uchramiz: “kat **zayluchasigʻa** chirmab, kat ostigʻa qoʻyub, ustiga gilemlarni yoptuk” [5,344].

Eski oʻzbek adabiy tilida **bisot** bir muncha xususiy maʼnoda, aynan “gilam, palos”, shuningdek, “shaxmat taxtasi” maʼnolarida ham qoʻllanishda boʻlgan [6,12]. Misol:

Toʻshalgach bu bisoti komroni,

Oʻzi oʻlturdi, lek oʻlturtub oni. (FSh, VIII, 302)

Umuman olganda Alisher Navoiy asarlari tilida qoʻllanilgan uyga toʻshadigan buyumlarni ifodalovchi leksik birliklarni semantik-struktur jihatdan tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, u koʻp komponentligi, fonetik va maʼnoviy variantlilik bilan tavsiflanadi. Uyga toʻshadigan buyumlarni ifodalovchi leksik birliklar semantik-struktur guruhlar maishiy leksikaning eng qadimiylari sanaladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ерленбаева Н. Бытовая лексика алтайского языка, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа, 2005. – С.18. (Erlenbaeva N. Bo‘tovaya leksika altayskogo yazo‘ka, avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Ufa, 2005. –S.18).

2. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: 1971. –Б. 52. (Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: 1971. –Б. 52 O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: 1971. –B. 52).

3. Хайрутдинова Т.Х. Бытовая лексика татарского языка. – Казань: Фикер, 2000. –Б. 82. (Хайрутдинова Т.Х. Бытовая лексика татарского языка. – Казань: Фикер, 2000. – Б. 82.) Xayrutdinova T.X. Bo‘tovaya leksika tatarskogo yazo‘ka. – Kazan: Fiker, 2000. –B. 82.)

4. Примов А. Шарафуддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридаги маиший лексикага оид сўзлар ҳақида // Илм сарҳашмалари. Urganch, 2020, №1. –Б. 142-143. (Примов А. Шарафуддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридаги маиший лексикага оид сўзлар ҳақида // Илм сарҳашмалари. Urganch, 2020, №1. –Б. 142-143 Primov A. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridagi maishiy leksikaga oid so‘zlar haqida // Илм сарҳашмалари. Urganch, 2020, №1. –B. 142-143).

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. –Б. 344. (Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 344. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 344.)

6. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2017. –Б. 12. (Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2017. – Б. 12.) Abduvalieva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2017. –B. 12.)